



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 422 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	10
<i>Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi</i>	
Talabalarning xulqidagi devyatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar.....	16
<i>Ergashev Jo'rabek Xalilovich</i>	
Zo'rvonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'rvonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari.....	19
<i>Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari.....	24
<i>Jonbo'tayeva Maxarramxon</i>	
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'рни.....	27
<i>Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna</i>	
Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish.....	31
<i>Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi</i>	
Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish.....	35
<i>Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li</i>	
O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	39
<i>Norbutayeva Dilafuz Abdurasulovna</i>	
Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....	43
<i>Rahimova Nazokatxon Kasimjonovna</i>	
Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach.....	49
<i>Alibekova Mahzuna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54	54
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi.....	59
<i>Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish.....	64
<i>Ruzmetova D. A.</i>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari.....	68
<i>Saydanova Dilafuz Sadirdinovna</i>	
Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish.....	75
<i>Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich</i>	
Effective Classroom Activities for Developing Speaking Skills Among EFL Learners.....	79
<i>Akhmatova Munisa Orif qizi</i>	
Xalqaro va milliy baholash dasturlarini hisobga olgan holda boshlang'ich ta'lim mazmunini yangi ta'lim trendlari bilan boyitish.....	86
<i>Gulmira Abdullayeva, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-psixologik omillari.....	90
<i>Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna</i>	
Analysis of the Methodology for Developing Students' Creative Thinking Competence Using Artificial Intelligence Tools Based on STEAM Educational Technologies.....	94
<i>Tursunaliyeva Nazokat Tokhir qizi</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida e-Portfolio ma'lumotlarini markazlashmagan tarzda boshqarishning afzalliklari va muammolari	102
<i>Yusupova Dono Adambayevna, Jalolov Tursunbek Sadriddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv-tolerantlik haqidagi qarashlari tahlili	110
<i>Amangeldiyeva Adolat Ravshanbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni savod o'rgatishga tayyorlashning samarali shakl, metod va didaktik vositalari	115
<i>Go'zal Qurbonova</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb pedagogik masalalari.....	121
<i>Muratova Munavvar O'rol qizi</i>	
Tarkibida toponimlar mavjud maqol va matallarning lingvomadaniy xususiyatlari va ularni o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	126
<i>Usmonova Zamira Jaxongirovna</i>	
Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda tassavur fenomenologiyasi	130
<i>Axmedova Shaxlo Shoxob qizi</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (haykaltaroshlik san'ati misolida).....	133
<i>Panayeva Maloxat Muminovna</i>	
Взаимосвязь склонности к сравнению внешности, интернет-зависимости и уровня притязаний у студентов-юношей	136
<i>Багдасарова Диана Левоновна</i>	
Роль каракалпакской народной национальной музыки в формировании духовно-нравственных качеств учащихся	141
<i>Зарымова Турсынай Бердибай кызы</i>	
A Review of the Literature on Stem Cells in Dentistry	145
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida estrada san'atini o'qitish masalalari (gitara cholg'usi misolida)	150
<i>Abdullayev O'tkir Sadullayevich</i>	
Talabalarda innovatsion kasbiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari	154
<i>Avezov Davronbek Soburovich</i>	
O'zbek xalq pedagogikasi an'alarining zamonaviy ta'lim tizimidagi transformatsiyasi	158
<i>Erkaboyeva Nigora Shermatovna</i>	
Texnika va iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilini mustaqil o'rganishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	163
<i>Mamatqodirova Gulnigor Rustamjonovna</i>	
Yangi dunyoviy tartibotning shakllanishi jarayonida siyosiy taraqqiyot barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash muammolari	168
<i>Nazarov Alisher Narimanovich</i>	
Ota-onasiz tarbiyalanayotgan o'smir o'g'il bolaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.....	171
<i>Qodirov Jahongir Neymat o'g'li</i>	
Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari.....	176
<i>Qosimova Xolida Nabiyevna</i>	
Jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni rivojlantirish	179
<i>Raxmatullayeva Durdona Fazliddin qizi</i>	
Personalized Approach to the Treatment of Generalized Periodontitis in the Prediction of Cardiovascular Complications Based on Salivary Proteomic Profiling.....	182
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababayan I. R.</i>	
O'smirlarda irratsional ustanovkalar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari	187
<i>Toshboltayeva Nodira</i>	
Роль интерактивного лингвокультурологического пространства в формировании лингвокультурной компетенции студентов национальных групп филологических направлений.....	191
<i>Рустамова Ферузахон Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Talabalarining darsdan tashqari vaqtda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishini shakllantirish 196 Dusanov Shuxrat Abdiraakovich
	Kutubxona muhitida talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning innovatsion modellari 201 Qosimova Xolida Nabiyevna
	Jismoniy tarbiya darslarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari 205 Xoliqnazarov Azamat Begaliyevich
	Oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni fanlararo integratsiya asosida shakllantirish 209 Allanazarova Dilobar Baxromovna
	"Alpomish" dostonida obrazlar nutqidagi pedagogik qarashlar 213 Boboqulova Aziza Adizovna
	Researching the Biochemistry and Physical Chemistry of Oral Fluid in Kids Who Are Acting Strangely 217 Eraliyeva Zulfiya Makhmudovna, Buzrukhoda Javohir
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mikro matnlarni o'qitishga qaratilgan kognitiv metodlar 222 I. Matrasulova
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishda raqamli didaktik vositalardan foydalanish metodikasi 225 Komilova Dilnozaxon Abdulhayevna, Xoliqova Mubinabonu Jamoliddin qizi
	Oliy ta'lim muassasalarida onomastik leksikani lingvokulturologik yondashuv asosida o'qitishning strategik-metodik asoslari 229 Mamatqulova Baxtixon Ravshanovna
	Raqamli matnlarning lisoniy va pragmatik xususiyatlari 232 Mashrapova Sevara Xabibovna
	Extensive Pelvic Ureteral Abnormalities and Reconstructive Operations in Patients 237 Mukhsinov Sardor
	Pedagogikada metodlardan foydalanish 241 Maxmudova Nargiz Djumaniyazovna
	Diqqat yetishmasligi giperaktivlik buzilishini davolash usullari 245 Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna
	Talabalaridagi sanogen tafakkurning psixologik xususiyatlarini empirik tadqiq etish masalasi 249 Tulyaganova Dilnoza Ulug'bek qizi
	Raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning xorijiy va milliy tajribasini qiyosiy tahlil qilish 253 Abdullayev Sherzodbek
	Context, Intention, and Meaning in English Language Teaching: Developing Pragmatic Awareness in Learners of English as a Foreign Language 256 Keldiyarova Shakhriyoda, Keldiyarova Mohlaroyim
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni steam yondashuvi yordamida og'zaki muloqotga o'rgatish mashqlar tizimi 267 Yunusova Malika Miralimovna
	Культурные и исторические коды франции в автобиографической прозе марселя паньоля 270 Рахманкулова Дилафруз Азимовна
	Трансформация роли преподавателя в условиях цифровизации высшего образования 274 Рахматова Нигина Ислумовна
	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy san'atning tutgan o'rni 278 Sultonova Marxabo
	Boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi 283 Akramova Fotimabonu Kurbonovna
	Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari 288 Axmedov Muslimjon Usmonovich
	Boshlang'ich ta'limda musiqa ta'limini sun'iy intellekt va shaxsga yo'naltirilgan pedagogika asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari 295 Djumabayeva Muqaddas



“Suvning agregat holatlari va tabiatda aylanishi” mavzusini o‘rgatishda 4K ko‘nikmasini rivojlantirish	300
<i>Esnazarov Abdiganiy Jamalatdinovich</i>	
Raqamli vositalar asosida mexatronika va robototexnika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	307
<i>Ikromov Muhammad-Anasxon Xakimjon o‘g‘li</i>	
Najmiddin Kubroning ilmiy merosi	311
<i>Jahongir Jumanov</i>	
Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarda tejamkorlikni shakllantirishning o‘rni.....	314
<i>Jo‘rayev Alisher Tursinboyevich</i>	
Milliy va umuminsoniy qadriyat fenomenining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi.....	318
<i>Jovliyev Jo‘rabek Alisher o‘g‘li</i>	
Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarda emotsional buzilishlarning ijtimoiy-psixologik sabablari	322
<i>Manzitov Baxtiyor Tolibovich</i>	
Maktabgacha ta‘lim jarayonida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslari va samaradorligi	329
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna, Mayliyeva Nasiba Axmedovna</i>	
Ta‘lim menejmentida Predictive Analytics texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	332
<i>Primqulova Aziza Mirzaahmad qizi</i>	
Yosh sportchilarda tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirish usullari	337
<i>Chariyev Ulug‘bek Abdujabbarovich, Radjabov Jaxongir Furkatovich</i>	
Z avlod psixologik xususiyatlariga mos zamonaviy tarbiya texnologiyalari	342
<i>Ravshanov Sanjar Tolibjonovich</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida refleksiya mexanizmining o‘rni	346
<i>Raxmonova Mahfuzaxon Xasan qizi</i>	
Iqtisodiy o‘shishning mohiyati	350
<i>Sayfiddinova Sabina Muhiddinovna</i>	
Dasturlash ko‘nikmalarini baholashda generativ sun‘iy intellekt va gamifikatsiya integratsiyalashgan arxitektura modelini ishlab chiqish.....	353
<i>Sultanov Ravshonbek Otonazarovich</i>	
Ta‘lim klasteri sharoitida talabalarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishning zaruriyati	356
<i>Sultanova Dilnura Abdurashidovna</i>	
Stereometriya darslarida o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini va tasvirlash savodxonligini 3D modellashtirish vositasida rivojlantirish	359
<i>Sultonova Shahnoza Yusuf qizi, Sultonova Dilrabo Yusuf qizi</i>	
Chayon zahrlining biologik xususiyatlari, toksikologik ta‘siri va biotexnologiyadagi istiqbolli qo‘llanilishi.....	365
<i>To‘xtamurodova Feruza</i>	
Sun‘iy intellekt va raqamli ta‘lim texnologiyalari integratsiyasi asosida oliy ta‘limda fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish.....	369
<i>Usubjonova Durdona Fazliddin qizi</i>	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim va tarbiya maqsadlarini o‘yin mexanikasiga integratsiya qilishning interaktiv modulli texnologiyalarini takomillashtirish	373
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Особенности формирования совместной познавательной деятельности в образовательном процессе.....	378
<i>Абдрахманова А. С.</i>	
Влияние корпоративной культуры вуза на формирование профессиональных ценностей студенческой молодежи.....	383
<i>Бекбаев Рауф Рустамович</i>	
MTMgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy munosabatlarni shakllantirish imkoniyatlari.....	389
<i>Boymurodova Surayyo Eshqvat qizi</i>	
Musiq madaniyati asosida deviant xulqli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli va samaradorligi	393
<i>Jabborova Muattar Xatamovna</i>	

Uzluksiz ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish.....	398
Mamadaliyeva Barnoxon O'ktamovna	
Focusing on the Practical and Technical Aspects of Dutar Performance and Enhancing this Process.....	403
Muyassarxon Adiljanovna Achildieva, Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining professional kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	409
Olloberganova Fazilat Tangriberganovna	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining vizual kompetensiyalarini rivojlantirishda dizayn tafakkuriga asoslangan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish	415
Shomurodov Oybek Norqulovich	



MUSIQA MADANIYATI ASOSIDA DEVIANT XULQLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK MODELI VA SAMARADORLIGI

Jabborova Muattar Xatamovna

Jizzax shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli
 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining musiqa fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli hamda uning samaradorligi ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan va aksiologik yondashuvlar integratsiyasi asosida tarbiyaviy model ishlab chiqilgan. Modelning tarkibiy komponentlari, funksional bog'liqligi, amalga oshirish bosqichlari va samaradorlik mezonlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: deviant xulq, musiqa madaniyati, pedagogik model, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, tarbiyaviy texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, monitoring, refleksiya, pedagogik samaradorlik, umumta'lim maktabi.

Abstract: This article examines the pedagogical model and effectiveness of working with students exhibiting deviant behavior through musical culture in general secondary schools. A comprehensive educational model was developed by integrating learner-centered, competency-based, activity-oriented, and axiological approaches. The structural components of the model, their functional interrelationships, implementation stages, and effectiveness criteria are scientifically substantiated.

Key words: deviant behavior, musical culture, pedagogical model, spiritual and moral education, educational technology, competency-based approach, monitoring, reflection, pedagogical effectiveness, general secondary school.

Аннотация: В статье исследованы педагогическая модель и эффективность работы с учащимися, имеющими девиантное поведение, средствами музыкальной культуры в общеобразовательной школе. На основе личностно-ориентированного, компетентного, деятельностного и аксиологического подходов разработана модель духовно-нравственного воспитания. Структурные компоненты модели, их функциональная взаимосвязь, этапы реализации и критерии эффективности научно обоснованы.

Ключевые слова: девиантное поведение, музыкальная культура, педагогическая модель, духовно-нравственное воспитание, педагогическая технология, компетентный подход, мониторинг, рефлексия, педагогическая эффективность, общеобразовательная школа.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham aynan barkamol avlodni voyaga yetkazish, yoshlarni turli salbiy illatlar va yot g'oyalardan himoya qilish, ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini mustahkamlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ayniqsa, deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Deviant xulq jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Maktab amaliyotida bunday holatlar o'quv intizomini buzish, tajovuzkorlik, darslarga muntazam qatnashmaslik, tengdoshlar bilan nizolashish, o'qishga qiziqishning pasayishi, zararli odatlarga moyillik va boshqa salbiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bunday xulq-atvorning shakllanishiga oilaviy muhit, tengdoshlar ta'siri, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari hamda o'quvchining individual psixologik xususiyatlari kabi omillar sabab bo'ladi. Shu bois deviant xulqni bartaraf etishda faqat ma'muriy yoki intizomiy choralar emas, balki shaxsning ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy va estetik tarbiya vositalaridan foydalanish zarur.

Musiqa madaniyati ana shunday kuchli tarbiyaviy vositalardan biri hisoblanadi. Musiqa insonning hissiy olamiga, estetik didiga, dunyoqarashiga va qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Musiqiy asarlarni tinglash, kuylash, cholg'u ijrochiligi, xor va ansambl faoliyatida ishtirok etish jarayonida o'quvchilarda o'zaro hurmat, hamkorlik, mas'uliyat, intizom va ijodkorlik kabi ijobiy fazilatlar shakllanadi. Ayniqsa, milliy musiqa merosi, maqom san'ati, xalq qo'shiqlari va mumtoz musiqa namunalari bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda maqsadli foydalanish yoshlarning milliy o'zligini anglashiga, Vatanga muhabbatni va ma'naviy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning aksariyatida musiqa vositalari qo'llaniladi. Biroq ular ko'pincha bayram yoki tantanali tadbirlarning badiiy qismi sifatida tashkil etilib, musiqa madaniyatining tarbiyaviy salohiyati to'liq ochib berilmaydi. Musiqiy faoliyatni deviant xulqli o'quvchilarning individual xususiyatlari bilan uyg'unlashtirgan, ilmiy asoslangan pedagogik model hamda amaliy metodik tavsiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa tarbiyaviy ishlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalash hamda ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va san'at pedagogikasi kesishgan nuqtada shakllangan murakkab ilmiy muammolardan biridir. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlarni bartaraf etishda faqat intizomiy yoki ma'muriy choralar yetarli samara bermaydi. Shaxsning hissiy dunyosiga, qadriyatlar tizimiga va estetik tafakkuriga ta'sir etuvchi tarbiyaviy vositalardan foydalanish esa ancha barqaror natijalarni ta'minlaydi. Ana shunday vositalardan biri musiqa madaniyatidir. Deviant xulq tushunchasi ilmiy muomalaga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sotsiologik tadqiqotlar orqali kirib kelgan.

Émile Durkheim deviant xulqni jamiyatdagi me'yorlar tizimining zaiflashuvi, ya'ni anomiya holati bilan bog'laydi. Olimning fikricha, jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarining susayishi shaxs xulq-atvorida og'ishlarni keltirib chiqaradi. Mazkur nazariya maktab pedagogikasi nuqtai nazaridan ham muhim bo'lib, u o'quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish zarurligini asoslaydi ^[1].

Keyinchalik Robert K. Merton deviant xulqning sabablarini shaxsning maqsadlari bilan ularga erishish imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosiblik orqali izohladi. Uning "ijtimoiy zo'riqish nazariyasi"ga ko'ra, o'quvchi o'z ehtiyojlarini qonuniy yo'l bilan qondira olmasa, salbiy xatti-harakatlarga moyillik kuchayadi ^[2]. Ushbu nazariya umumta'lim maktablarida o'quvchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijobiy motivatsiyani shakllantirish muhimligini ko'rsatadi.

Psixologik yondashuv vakillaridan L. S. Vygotskiy shaxs rivojlanishida madaniy muhit va ijtimoiy muloqotning hal qiluvchi rolini asoslagan. Uning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning ma'naviy va axloqiy sifatleri madaniy vositalar orqali shakllanadi. Musiqa ana shunday madaniy vositalardan biri bo'lib, bolaning hissiy tajribasini boyitadi, empatiya va estetik didni rivojlantiradi ^[3].

A. N. Leontyevning faoliyat nazariyasi ham mazkur tadqiqot uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Olim shaxsning rivojlanishini uning amaliy faoliyati bilan bog'laydi. Shu sababli o'quvchini musiqiy ijod, xor, ansambl va sahna faoliyatiga jalb etish uning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi ^[4].

Musiqa pedagogikasining nazariy asoslari D. B. Kabalevskiy tomonidan chuqur ishlab chiqilgan. Kabalevskiy musiqa ta'limining asosiy vazifasi professional ijrochilarni tayyorlash emas, balki ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash ekanligini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, musiqa orqali o'quvchilarda go'zallikni his etish, ezgulikka intilish, Vatanga muhabbat va insonparvarlik fazilatleri shakllanadi ^[5]. Bu qarashlar bugungi kunda ham o'z ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolgan.

San'at pedagogikasining yana bir yirik namoyandasi B. M. Nemenskiy estetik tarbiyani shaxs rivojlantirishining ajralmas qismi sifatida baholaydi. Olim san'atning emotsional ta'sir kuchi insonning axloqiy qarashlarini shakllantirishda katta rol o'ynashini ta'kidlaydi ^[6]. Ushbu fikr musiqa madaniyatining deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashdagi imkoniyatlarini ilmiy asoslashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston pedagogika fanida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari jadid mutafakkirlari merosida ham keng yoritilgan. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot..." degan g'oyasi bugungi ta'lim tizimida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Avloniy yoshlar tarbiyasida musiqa, adabiyot va san'atning tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholagan ^[7]. Mazkur qarashlar zamonaviy musiqa pedagogikasining milliy asoslarini belgilaydi.

Mustaqillik yillarida N. Egamberdiyeva, R. Ishmuhammedov, B. Xodjayev, Sh. Sharipov kabi olimlar ma'naviy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha muhim ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning ishlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tarbiyaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning nazariy hamda metodik asoslari ishlab chiqilgan ^[8-11].



Keith Swanwick musiqa ta'limining zamonaviy konsepsiyasida ijodiy faoliyatni markaziy o'ringa qo'yadi. U musiqani tayyor bilimlarni o'zlashtirish vositasi sifatida emas, balki shaxsning ijodiy salohiyatini namoyon etish vositasi sifatida talqin qiladi^[14]. Ushbu yondashuv deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda ayniqsa muhim bo'lib, ularga o'z imkoniyatlarini ijobiy faoliyat orqali namoyon etish imkonini beradi.

So'nggi yillarda SEL (Social and Emotional Learning) konsepsiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ham musiqa vositasida emotsional intellektni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda empatiya, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy mas'uliyat va hamkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda san'atning, xususan, musiqa madaniyatining imkoniyatlari yuqori baholanadi^[15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik modelini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika, musiqa pedagogikasi, rivojlanish psixologiyasi, sotsiologiya va tarbiya nazariyasining ilmiy yutuqlariga tayanadi. Metodologik asos sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv, aksiologik yondashuv va tizimli yondashuv tanlandi. Mazkur yondashuvlar o'quvchi shaxsini tarbiya jarayonining markaziga qo'yish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda musiqa madaniyatining tarbiyaviy imkoniyatlaridan kompleks foydalanishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagogika fanida tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish faqat alohida metodlar yoki tadbirlar orqali emas, balki puxta ishlab chiqilgan pedagogik model asosida amalga oshirilishi zarurligi e'tirof etilmoqda. Pedagogik model ta'lim va tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, ishtirokchilari hamda natijalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi ilmiy tizimdir. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda musiqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlash jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida modellashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasining nazariy asosini insonparvarlik pedagogikasi, konstruktivistik ta'lim nazariyasi hamda faoliyat nazariyasi tashkil etadi. Insonparvarlik pedagogikasi o'quvchini tarbiya obyektigina emas, balki faol subyekt sifatida ko'radi. Ushbu yondashuv deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki salbiy xatti-harakatlarni jazolash orqali emas, balki o'quvchining ichki motivatsiyasini shakllantirish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

Faoliyatga asoslangan yondashuvga ko'ra, shaxsning rivojlanishi uning amaliy faoliyati jarayonida amalga oshadi. Shu sababli tadqiqotda musiqa madaniyati darslari, xor va ansambl mashg'ulotlari, vokal ijrochiligi, milliy cholg'ular bilan ishlash, musiqiy sahna ko'rinishlari, ijodiy loyihalar hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy pedagogik vositalar sifatida qaraldi. O'quvchilarni ushbu faoliyatlarga muntazam jalb etish ularning emotsional holatini barqarorlashtirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qilishi nazarda tutildi.

Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotning yana bir muhim metodologik tayanchi hisoblanadi. Ushbu yondashuv doirasida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiya, madaniy kompetensiya, fuqarolik kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi hamda emotsional intellektni shakllantirish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Musiqa madaniyati mazmuni ana shu kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholandi.

Aksiologik yondashuv tadqiqotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda musiqa milliy va umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Milliy maqom san'ati, xalq qo'shiqlari, baxshichilik an'analari, mumtoz kuylar hamda zamonaviy vatanparvarlik ruhidagi musiqiy asarlar o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarga hurmat, milliy o'zlikni anglash va estetik didni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy omillar sifatida tanlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida umumta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish amaliyoti, musiqa madaniyati fanining tarbiyaviy imkoniyatlari hamda deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashda qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. O'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat maktablarda musiqa madaniyati darslari va sinfdan tashqari musiqiy tadbirlar o'quvchilarning estetik didini shakllantirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ularni deviant xulqli o'quvchilar bilan individual va tizimli ishlash vositasi sifatida qo'llash yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, tarbiyaviy tadbirlarning ko'pchiligida musiqa faqat bayram tadbirlarining badiiy bezagi sifatida qo'llaniladi. Tadbir mazmuni, tarbiyaviy maqsad hamda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik har doim ham ta'minlanmaydi. Natijada tadbir yakunlangandan so'ng o'quv-

chilarning xulq-atvorida barqaror ijobiy o'zgarishlar kuzatilmaydi. Bu esa tarbiyaviy faoliyatni yangi pedagogik model asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Shu maqsadda tadqiqot davomida "Musiqqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning integrallashgan pedagogik modeli" ishlab chiqildi. Modelning asosiy g'oyasi tarbiyaviy faoliyatni uzluksiz, bosqichma-bosqich hamda diagnostik yondashuv asosida tashkil etishdan iborat.

Taklif etilgan model oltita o'zaro bog'liq komponentdan tashkil topgan: maqsadli, diagnostik, mazmuniy, texnologik, refleksiv va natijaviy komponentlar. Har bir komponent mustaqil vazifani bajarishi bilan birga, yagona pedagogik tizimning tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritadi. Maqsadli komponentning asosiy vazifasi deviant xulqli o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish hamda salbiy xulq-atvorning oldini olishdan iborat. Diagnostik komponent orqali o'quvchilarning psixologik holati, musiqqa qiziqishi, kommunikativ ko'nikmalari va ma'naviy qadriyatlarga munosabati o'rganiladi. Olingan ma'lumotlar individual tarbiyaviy rejani ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mazmuniy komponentda musiqqa madaniyati fanining tarbiyaviy imkoniyatlari milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiriladi. Xususan, maqom san'ati, xalq qo'shiqlari, baxshichilik san'ati, mumtoz musiqqa, bolalar qo'shiqlari hamda zamonaviy vatanparvarlik ruhidagi musiqiy asarlar ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning mazmuniga kiritiladi. Bunda musiqiy materiallarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va tarbiyaviy ehtiyojlari hisobga olinadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida musiqqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning pedagogik modeli zamonaviy ta'lim tizimi ehtiyojlariga mos keluvchi samarali tarbiyaviy mexanizmlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida amalga oshirilgan nazariy va amaliy tahlillar musiqqa san'atining o'quvchilarning hissiy-emotsional rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi, ma'naviy-axloqiy kamoloti hamda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni yuqori ekanligini tasdiqladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, deviant xulq muammosi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida keng o'rganilgan bo'lsa-da, umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida musiqqa madaniyati vositasida ishlab chiqilgan yaxlit pedagogik model yetarli darajada ilmiy asoslanmagan. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, musiqqa madaniyatining tarbiyaviy imkoniyatlari pedagogik modellashtirish asosida tizimlashtirildi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik modelning asosiy afzalligi uning tizimlilikida namoyon bo'ladi. Model maqsadli, diagnostik, mazmuniy, texnologik, refleksiv va natijaviy komponentlarning uzviy bog'liqligiga asoslanadi. Ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatning izchil va uzluksiz tashkil etilishini ta'minlaydi. Natijada musiqqa madaniyati faqat estetik tarbiya vositasi sifatida emas, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi kompleks pedagogik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning muhim ilmiy natijalaridan biri sifatida musiqqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning integrallashgan pedagogik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatiga moslashtirilgan bo'lib, diagnostika, tarbiyaviy faoliyatni loyihalash, musiqiy ijodiy faoliyat, refleksiya va monitoring bosqichlarini yagona tizimda birlashtiradi. Ushbu model amaliyotga joriy etilganda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari musiqqa madaniyati fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy to'garaklar va jamoaviy musiqiy loyihalar bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatdi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday tashkil etilishi o'quvchilarning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va maktab jamoasiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash uchun qulay sharoit yaratadi. Olingan ilmiy natijalarga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, umumta'lim maktablarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini ishlab chiqishda musiqqa madaniyati fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini tizimli ravishda hisobga olish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, musiqqa madaniyati o'qituvchilari, sinf rahbarlari va maktab psixologlari uchun deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashga mo'ljallangan maxsus metodik qo'llanmalar hamda o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, pedagoqlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida malaka oshirish kurslari dasturlariga "Musiqqa madaniyati vositasida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" nomli maxsus modulni kiritish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan xor jamoalari, vokal ansambllari, milliy cholg'u to'garaklari va ijodiy studiyalarni tarbiyaviy faoliyatning muhim elementi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.



Shunday qilib, musiqa madaniyati vositasida ishlab chiqilgan pedagogik model umumta'lim maktablarida deviant xulqli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali tizimi sifatida baholanishi mumkin. Mazkur modelning amaliyotga joriy etilishi nafaqat salbiy xulq-atvorning oldini olishga, balki o'quvchilarning ma'naviy barkamolligi, estetik madaniyati, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz/docs/-5841063>
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
5. Leontyev A. N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1977.
6. Rubinshteyn S. L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
7. Kabalevskiy D. B. Osnovnye printsipy i metody programmy po muzyke dlya obshcheobrazovatel'noy shkoly. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988.
8. Nemenskiy B. M. Mudrost krasoty. – Moskva: Prosveshcheniye, 1987.
9. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2011.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.